

ZULFIYA QUROLBOY QIZI IJODIDA AYOL RUHIYATI VA IJTIMOIIY HAYOT TASVIRI

*Odilov Xurshidbek
FarDU magistranti*

Annotatsiya. Maqolada Zulfiya Qurolboy qizi ayol obrazini yaratish mahorati, ayol ruhiyatini ochishdagi ayo ijodkorning ijod laboratoriyasi, ayol xarakterini o'zgarishida tashqi omillar ta'siri kabi masalalar ilmiy jihatdan asosli tarzda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: obraz, xarakter, tip, ijtimoiy hayot, detal va uning turlari, ayol ruhiyati tasviri, ijod jarayoni, tashqi omillar.

Аннотация. В статье научно раскрываются способности Зульфии Курольбой к созданию женского образа, творческая лаборатория художницы по раскрытию женской психики, влияние внешних факторов на изменение женского характера.

Ключевые слова: образ, характер, тип, социальная жизнь, деталь и ее виды, образ женской психики, творческий процесс, внешние факторы.

Annotation. In the article, Zulfiya Kurolboy's ability to create a female image, the creative laboratory of the artist in opening the female psyche, and the influence of external factors on the change of the female character are revealed scientifically.

Key words: image, character, type, social life, detail and its types, image of female psyche, creative process, external factors.

Har qanday badiiy asarda yaratilajak obraz, avvalo yozuvchining kishilarga va hayotga munosabatini aks ettirish vositasi hisoblanadi. Ayni chog'da u muallifning hayot hodisalariga bergan estetik bahosi hamdir. Har bir personaj o'zida yozuvchining estetik idealini u yoki bu darajada tajassum etadi. Bu vazifani bajarish uchun o'sha obraz muayyan ijtimoiy sharoitda, ruhiy-ma'naviy muhitda harakatlanishi zarur. Bu tabiiy ravishda ro'y berishi zarur. Mabodo, san'at asarida muallif hayotdagi mavjud narsalarga, voqea-hodisalar va odamlarga, ularning taqdiriga faqat sun'iy, rasmiy taqlid qilish maqsadi bilan yondashsa, bu badiiy asar emas, mahorat bilan yasalgan narsalar majmuasidangina iborat bo'lib qoladi. Bunday sun'iylikdan holi bo'lish uchun san'atkorning estetik tafakkuri aniq va barqaror bo'lmog'i shart [1, 56.]

Asarni tahlil qilish, uni har tomonlama o'rganish uchun uni shunga o'xshash boshqa bir asar bilan taqqoslab tahlil etish lozimdir. Shu sababli taniqli adabiyotshunos va tanqidchi Yo'ldosh Solijonov Zulfiya Qurolboy qizi asarlarini yana bir yozuvchimiz Salomat Vafo asarlari bilan taqqoslagan holda, uning badiiy go'zalligini, yozuvchining estetik idealini yanada yorqinroq ranglarda ochib berishga erishgan.

Badiiy adabiyotda inson obrazini to'laqonli yaratish, uni o'quvchi ko'z oldida konkret jonlantirish uchun xizmat qiladigan qator vositalar mavjud. Bularga muallif xarakteristikasi, portret, badiiy psixologizm, personaj nutqi kabi badiiy

unsurlar kiradi. Xuddi mana shu unsurlar badiiy adabiyotda to'laqonli inson obrazini yaratishdagi eng muhim omillar sanaladi. Chunki o'quvchi ko'z oldida qahramon xarakteri, uning tuzilishi, shakl-u shamoyili to'liq ochib berilmasa, bu qahramon o'quvchi uchun mavhum bo'lib qoladi.

Fransuz san'atshunosi Ippolit Ten (1828-1893)ning hikoya qilishicha, amerikalik oddiy bir askar teatrga tushib, "Otello" spektaklini tomosha qiladi. Sahnada Otello rashk o'tida yonib, sevimli xotini, pok Dezdemonani bo'g'ib o'ldirar ekan, tomoshabin askar undan bag'oyat nafratlanib ketadi va Otello-aktyorni otib tashlaydi.[2, 237]

Zulfiya Qurolboy qizining "Armon asirasi", "Mashaqqatlar girdobi" asarlarida bevosita bozor munosabatlari avjiga chiqqan sharoitda shakllangan, tafakkuri uyg'ongan, o'zligini anglagan va anglay olmagan odamlar toifasi haqida hikoya qilinadi. Shu narsani alohida ta'kidlash o'rinliki, har bir adib tanlagan mavzu va muammoga o'z estetik ideali nuqtai nazaridan yondashadi. Bu asarlarda bozor boshqaruvi sharoitida ayol shaxsining o'rni va qismatiga alohida e'tibor berilgan. "Armon asirasi" romani qahramonlari Nasiba, Hulkar Armon, Zuhra "Mashaqqatlar girdobi"dagi Nargiza, Sanobar, Gulruh va boshqa epizodik xarakterdagi ko'plab personajlarning har biri o'quvchida turlicha taassurot qoldiradi. Yaratilgan bu obrazlarning har-biri katta-kichikligidan qat'iy nazar, o'z g'oyaviy-badiiy yukiga ega ekanligini alohida qayd etish zarur. Biroq qahramon mana shu yukni yozuvchi ko'zlagan manzilga olib bora oldimi, o'z vazifasini qay darajada ado etdi degan savol bilan yondashadigan bo'lsak, ijodkorning badiiy saviyasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov Zulfiya Qurolboy qizini Salomat Vafo asarlari va qahramonlari bilan o'zaro qiyoslaydi. Ikkala adibaning umumiy jihatlari sifatida turli toifalarga mansub bo'lgan ayol qahramonlarining har bir harakati, o'yi orqali davrining muhim muammolariga ishora qiladilar. Saltanat Vafoning "Ovoraning ko'rgan-kechirganlari" asarlaridagi tasvirlangan Saltanat, Malika, Maqsuda kabi ayol qahramonlar tasvirini ko'rishimiz mumkin.

Nasiba va Maqsuda- oddiygina uy bekasi, Hulkar Armon va Saltanat ijodkorlar toifasidan, Malika- o'qituvchi, Gulruh- shifokor, Nargiza va Sanobar, Zuhralar oldi-sotdi savdosi bilan shug'ullanib, boyishni orzu qilgan ayollar hisoblanadi.

Zulfiya Qurolboy qizi davr manzarasi, bozor iqtisodiyoti kun tartibiga qo'yayotgan muammolarni kengroq qamrab olishga urinadi. Ayrim firibgarlarning lotoreya o'yini orqali boyib ketayotgani, kun sayin ko'payib borayotgan xususiy gazetalarning sahifalarida e'lon qilinayotgan yengil- yelpi, oldi- qochdi va axloqsizlikni targ'ib qiluvchi maqolalar odamlar hayotiga salbiy ta'sir o'tkazayotgani Hulkarning afsus- nadomatli o'ylari orqali o'z ifodasini topgan. Shunisi muhimki, yozuvchi yaratgan har bir obraz katta-kichikligidan, muhim yoki nomuhimligidan qat'iy nazar, o'zi mansub bo'lgan tabaqaning xarakterli xususiyatlarini mujassam etishi bilan yozuvchi g'oyaviy niyatining aniq

ifodalanishiga yordam beradi. Avvalo, yozuvchining estetik ideali musaffoligi bilan e'tiborni tortadi. U hamma narsadan poklik, ezgulik unsurlarini qidiradi. Masalan, "Armon asirasi" romanidagi Nasiba eri Donishning o'limidan so'ng jinsiy ehtiyojni xayoliga mutlaqo keltirmagan holda, qo'pol va bezori kimsa Talgatga ayollik mehrini bag'ishlab, uni ham jismoniy xastalikdan, ham miyasiga o'rnatib qolgan yovuzlik niyatidan xalos etadi. Eri tashlab ketib beva qolgan Hulkar Armon ham hayotda, ham ijodda pokiza axloqini namoyon qiladi. Bu borada o'zi namuna ko'rsatibgina qolmay, balki yomon yo'lga kirib ketgan Nasiba va Zuhriani izlab topib, tanbeh beradi. Yoki "Mashaqqatlar girdobi"ga tushib qolgan Gulruh o'zining tashqi go'zalligi bilan emas, balki axloqiy pokizaligi, muomalasining shirinligi bilan nafaqat mardikorlarning, ayni chog'da, butun vujudidan "allaqanday yovuzlik hidi keladi"gan Po'lat Damirovichni ham, qo'lini qayoqqa uzatsa yetadigan boshliq Hakim Nazarich ham tiz cho'ktiradi. Bu ayollar o'zlarining axloqiy go'zalligi bilan o'zgarar axloqining o'zgarishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadilar.[1, 58]

Shu o'rinda Zulfiya Qurolboy qizining obraz yaratish mahoratiga yana bir bor tasannolar ayta olamiz. Chunki u o'z asarlarida farishtaga qiyos etilajak ayol zotini butun go'zalliklari bilan, holbuki tashqi go'zalligi bilan ichki dunyosining betakrorligi bilan tasvirlay oladi. U yaratgan ayollar obrazi va ularning ruhiyati shunday o'ziga xos xususiyatlarga egaki, ularda barcha ayollarga xos bo'lgan umumlashma va fazilatlar o'z ifodasini topa oladi. U o'z asarlarida ayollarni turli taqdir qiyinchiliklari bilan sinaydi va bu sinovlar orqali ularning nechog'lik kuchli hamda irodali ekanliklarini yana bir bor ko'rsatib beradi. Bu qiyinchiliklar ichida Zulfiya Qurolboy qizi ayolning pok nomini hamda uning ulug'vorligini har qanday holatda ham saqlab qola oladi. Uning qahramonlari hayotdagi chang-g'uborli, bo'ronli ko'cha va g'urbatli manzillardan o'zlariga hech qanday g'ubor, chang yuqtirmasdan bemalol shahdam qadamlar bilan o'z or- nomuslarini himoya qila oladilar.

Shu o'rinda Yo'ldosh Solijonovning bu qahramonlar haqida keltirgan yana bir fikrini keltirib o'tmoqchiman. Binobarin, san'at asarining bosh maqsadi azal-azaldan insonga xos ehtirolarning qandayligidan qat'iy nazar, poklantirishga yo'naltirish va shu yo'l bilan kishilarni yaxshilikka o'rgatishdan iborat bo'lib kelgan. Faylasuf Gegelning ta'kidlashicha, san'at insonning axloqiy kamolotini tarbiyalash uchun, eng avvalo, "dag'allikni jilovlashi, ehtirolarni madaniylashtirishi kerak". Shu jihatdan Nasiba, Hulkar Armon va Gulruhlarning xarakteri ibratlidir. Nasiba romanning boshidan-oxirigacha bir dunyo ehtirolar qurshovida yashaydi. Ishga bormayotgan "dangasa", pul topib kelishga "no'noq", oila ro'zg'orini eplolmayotgan "noshud" eri Donishga dastlab qo'rs, dag'al, betgachoparlik bilanmuomala qiladi. Eri vafot etganidan keyin esa, birdaniga muloyimlashadi, uning o'limida o'zini aybdor deb biladi. Eriga o'z vaqtida ko'rsatilmagan mehrini ayollarni qiynab azoblashdan lazzatlanadigan xudbin Talgatga in'om etadi. Erining ruhi oldida qarzdorlik hissi tufayli ayol tabiatida paydo bo'lgan qo'rqinch, andisha, rahm-shafqat, hayajon va izzat unga tinchlik

bermaydi. Bu his- tuyg'ular bir-biri bilan tinimsiz kurashadi. Natijada, Nasiba bozorga ham chiqmay qo'yadi, pul topishni, o'zi va bolalari qanday kun kechirishini o'ylamaydi. Har kuni Talgatni yo'qlab boradi, uni ovqatlantiradi, uyini tozalaydi, kirini yuvadi. Nasiba bu ishlarni bir bemorning ko'nglini olish, uning hasta tani va ruhiga bardamlik bag'ishlash niyatida beminnat bajaradi. Ayol o'zining mana shunday pokiza axloqiy go'zalligi bilan Talgat tafakkurida tomir otgan yovuzlikni ezgulik sari yo'naltiradi.[1, 60]

Ayol hamma zamonlarda ham poklik, ezgulik timsollari sifatida talqin qilinib kelingan. Xuddi mana shu aqidalarga amal qilgan holda yozuvchimiz ham har qanday holatda ham uning bokiraligini, axloqiy yetukligini ko'rsatib bergan. Ammo hayotda hamma narsa bir xil, faqat yaxshiliklardangina, go'zalliklardangina iborat bo'lib qolmagani singari ayollarning ham barchasini birday yaxshi deb tushunish to'g'ri emas. Sanobar kabi qahramonlar aynan mana shu fikrni bildirib o'tish uchun asarda keltirib o'tilgan. Agar asarda bu kabi obrazlar bo'lmaganida edi, bu holat asar qimmatini biroz tushurib yuborgan bo'lar edi. Chunki har qanday asar voqealari hayotdan olib yozilgan bo'ladi va biz hayotda bu kabi ayollarni uchratishimiz mumkin bo'ladi. Zulfiya Qurolboy qizi ularni ochiq-oydin irodasizlik, xayosizlik kabi illatlar bilan tasvirlamaydi. Ularni hech qanday ayb ish bilan ham qoralamaydi, faqatgina hayot majburiyati bilan ularning qalbida paydo bo'lgan bu kabi tuyg'ularni berib o'tadi xolos. Salomat Vafo esa ularni qanday bo'lsa shundayligicha ochiq-oydin tasvir etadi. Bu esa yozuvchi idealining qanday ekanligini yana bir bor ko'rsatib bergan.

Eng asosiysi ijodkorimiz qahramonlari o'z baxtlarini o'z qo'llari bilan bunyod etadilar va bu baxtning qadriga yeta oladilar. Bunga misol qilib chiroyda tengi yo'q Gulruh, Hulkar Armonlarni keltirishimiz mumkin. Adibimiz qahramonlari hayotga ishonch bilan boqa oladilar va ularda ko'pchilik erkaklarda uchramaydigan iroda, ishonch, bardosh kabi hislatlarni ko'rishimiz mumkin. Bu esa uning qahramonlari eng katta yutug'idir.

Zulfiya Qurolboy qizi asarlarida zamonaviy ayol va uning badiiy-estetik funksiyasiga, ayniqsa, milliy qadriyat sifatida oilaviy an'analarni saqlab qolish, turli g'oyaviy tazyiq, vaqtinchalik hoyu havaslarga berilgan erkaklarga nisbatan bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lish, o'zining azaliy vazifasi – avlodlar davomiyligini saqlash, ularni ma'nan sog'lom bo'lib voyaga yetishi hamda o'tish davrida oila a'zolari ongida yuz bergan o'zgarishlarni avlodlar hayotiga ta'sir etmasligiga harakat qilishi yoritilgan. Natijada ma'nan jasoratli ayollarning badiiy tasvirini yaratishga erishilgan.[5. 129-bet]

Adabiyotlar ro'yxati

1. Solijonov Y. Ko'zgdagi hayot. Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti.2013. 55-60 betlar
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari Toshkent,O'zbekiston, 2002
3. Zulfiya Qurolboy qizi "Armon asirasi" romani. Toshkent. "Sharq" 2006 yil
4. Zulfiya Qurolboy qizi "Mashaqqatlar girdobi" romani. Toshkent. "Sharq" 2007 yil
5. Jo'rayeva M. Zamonaviy o'zbek nasrida yangi inson konsepsiyasi. Monografiya. T. "Mumtoz so'z". nashr. 2021-yil

6. Абдуллаева, Р. М. (2022). Интеграция С Клиническими Дисциплинами В Медицинском Вузе При Обучении Русскому Языку Специальности. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(6), 94-97.
7. Абдуллаева, Р. М. (2022). Коммуникационные Технологии Языкового Обучения В Медицинском Вузе. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(6), 98-102.
8. Abdullaeva, R., Esanow, F. N. U., & Eshbaeva, N. (2022). Translation as a means of teaching clinical terminology.
9. Абдуллаева, Р. М. (2019). Ситуативный контекст в процессе преподавания русского языка студентам медицинских вузов. In *Современная Россия в мировом политическом процессе: глобальное и региональное измерение* (pp. 357-363).
10. Абдуллаева, Р. М. (2021). СЕТЕВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНСКОМ ВУЗЕ. Редакционная коллегия.
11. Кулахметова, Ж. Т. (2018). ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. *НАУКА И ИННОВАЦИИ В XXI ВЕКЕ: АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ, ОТКРЫТИЯ*, 51.
12. Abdullaeva, R., Mirrahimova, G., Israilova, I., Eshbaev, O., & Aminova, G. (2020). Learning foreign vocabulary using computer programs. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 567-572.
13. Mirzatullaevna, A. R., Jabbarovich, E. U., Shuhratovna, M. G., Erikovna, N. F., & Majlimovna, P. M. (2019). Uso de tecnologias multimedia modernas en clases de idiomas extranjeros. *Religación. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades*, 4(18), 80-85.
14. Абдуллаева, Р. М. (2016). СВОЕОБРАЗИЕ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ ВЕЛИКОБРИТАНИИ. *Ученый XXI века*, 9.